



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiq ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



FUQAROLIK JAMIYATIDA HUQUQIY MADANIYAT VA UNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna

Termiz davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: PatiyeV Xoldor

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishida huquqiy madaniyatning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Huquqiy madaniyat – fuqarolarning huquq va erkinliklarga, qonun ustuvorligiga, ijtimoiy adolat va mas'uliyat tamoyillariga ongli munosabatini ifodalovchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda huquqiy madaniyat tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari – huquqiy ong, huquqiy faoliyat va huquqiy xulq-atvor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, xususan, 2023–2025-yillardagi Konstitutsiyaviy o'zgarishlar, sud-huquq tizimining modernizatsiyasi va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan dasturlar natijalari yoritiladi. Maqolada demokratik jamiyatni shakllantirishda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda ta'lim va ma'naviyat tizimi orqali huquqiy qadriyatlarni mustahkamlash yo'llari tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, demokratiya, islohot, adolat, ma'rifat, huquqiy islohotlar.

Abstract: This article analyzes the role and importance of legal culture in the sustainable development of civil society. Legal culture is interpreted as a social phenomenon reflecting citizens' awareness and respect for the principles of the rule of law, justice, and civic responsibility. The study examines the theoretical foundations of legal culture, including its main components – legal consciousness, legal behavior, and legal activity – and the interrelations among them. It also highlights the ongoing legal reforms in Uzbekistan, particularly the constitutional amendments of 2023–2025, modernization of the judicial and legal system, and national programs aimed at enhancing citizens' legal awareness. The article explores both the theoretical and practical aspects of developing a democratic society through the promotion of legal culture and emphasizes the role of education and enlightenment in strengthening legal values and civic engagement.

Key words: civil society, legal culture, legal consciousness, legal education, democracy, reform, justice, enlightenment, legal reforms.

Аннотация: В статье проводится анализ роли и значения правовой культуры в устойчивом развитии гражданского общества. Правовая культура рассматривается как социальное явление, отражающее осознанное отношение граждан к правам и свободам, верховенству закона, справедливости и гражданской ответственности. В исследовании раскрываются теоретические основы понятия правовой культуры, её основные элементы – правовое сознание, правовое поведение и правовая деятельность, а также взаимосвязи между ними. Особое внимание уделено проводимым в Узбекистане правовым реформам, в частности конституционным изменениям 2023–2025 годов, модернизации судебно-правовой системы и государственным программам, направленным на повышение уровня правосознания населения. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования демократического общества через развитие правовой культуры и подчеркивается роль образования и просвещения в укреплении правовых ценностей и гражданской активности.

Ключевые слова: гражданское общество, правовая культура, правовое сознание, правовое воспитание, демократия, реформа, справедливость, просвещение, правовые реформы.

KIRISH

Bugungi globallashuv va modernizatsiya jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan izchil bormoqda. Bunday jamiyatning barqaror rivojlanishida aholining huquqiy madaniyati, huquqiy tafakkuri hamda qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Huquqiy madaniyat – bu shaxs va jamiyatning huquqqa, qonunlarga, adolatga hamda ijtimoiy tartibga bo'lgan ongli munosabatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu bois, fuqarolik jamiyatining



poydevorini mustahkamlash uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur masala doirasida olib borilgan va borilayotgan tadqiqotlar ham birmuncha salmog'dor. Xususan, O'zbekistonda huquqiy madaniyat masalalari bilan A.A. Azizxo'jayev, E.M. Abzalov, X.B. Boboyev, Z.M. Islomov, X.T. Odilqoriyev, E. Xalilov va boshqalar, shuningdek, fuqarolik jamiyatining ahamiyati, uni rivojlantirishning dolzarb jihatlar va mexanizmlari, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega jamiyat a'zolarini tarbiyalash masalalari bilan F.A. Musayev, O.T. Nasiriddinova, J.M. Abdullayev, T.B. Matibayev, J.Y. Mavlonov, Sh.N. Nazarov, U.E. Fazilov, X.T. Mamatov, A.I. Saitqosimov, M.B. Kadirov, A.A. Abdumalikov, S.Sh. Saidov va boshqa olimlar izlanishlar olib borganlar.

Faylasuf olim M. Kadirov: "Fuqarolik jamiyati – bu yuksak insoniy qiyofaga ega bo'lgan jamiyat yoki yuksak darajada uyg'un hayot kechiruvchi erkin insonlar jamiyatidir", – deya ta'kidlaydi ^[2]. Chindan ham, faqatgina huquqiy normalarga emas, balki axloqiy normalarga ham ongli tarzda amal qilinadigan jamiyat tom ma'noda farovonlikka haqdor bo'ladi, deb ayta olamiz.

U.E. Fozilovning "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy va huquqiy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida ilgari surilgan g'oya va qarashlar ham tahliliy yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiy yondashuv, qiyosiy tahlil va huquqiy-nazariy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va Prezident farmonlari tahlil etildi. Empirik ma'lumotlar sifatida ta'lim tizimidagi huquqiy tarbiya, jamoatchilikdagi huquqiy ongni oshirishga qaratilgan dasturlar ham o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy ong darajasi, huquqiy bilimlar tizimi, qonunga hurmat va huquqni amalga oshirishdagi faol ishtirokini ifodalaydi. Uning rivojlanishi demokratik institutlarning samarali faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlar huquqiy madaniyat shakllanishi va rivojlanishida huquqiy ta'limning o'rni muhim ahamiyatga ega. Huquqiy bilimlarni egallagan yoshlarda quyidagi mezonlar shakllanadi:

1. **Huquqiy bilimlar:** huquqiy ta'lim yoshlar uchun asosiy huquqlar, majburiyatlar va qonunlarni anglashda yordam beradi. Bu ma'lumot ular o'z huquqlarini himoya qilishda va qonunlarga amal qilishda ko'maklashadi.
2. **Tanqidiy tafakkur:** huquqiy ta'lim yoshlarni tanqidiy tafakkur qobiliyatiga ega bo'lishlarini rag'batlantiradi, bu esa ularga muammolarni baholash va qaror qabul qilishda foydali bo'ladi.
3. **Fuqarolik javobgarligi:** yoshlar yashayotgan jamiyatda fuqarolik javobgarligini anglashlari zarurdir. Huquqiy ta'lim ularning jamoat hayotida faol ishtirok etishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantiradi.
4. **To'g'rilik va adolat prinsiplari:** huquqiy ta'lim yoshlarni to'g'rilik, adolat, tenglik prinsiplarga amal qilishga undaydi, bu esa ularning axloqiy moyilliklarini shakllantirishga yordam beradi.
5. **Muvofiqlik va tartib-intizom:** huquqiy madaniyatning rivojlanish jarayonida yoshlar qonunlarga rioya qilinishi zarurligini tushunadilar; bu esa jamiyatdagi tartib-intizomni saqlab turishda muhim rol o'ynaydi.
6. **O'zaro hurmat va hamkorlik:** huquqiy ta'lim orqali o'smirlar bir-birlariga hurmat ko'rsatishni hamda boshqalarning huquqlariga e'tibor berishni o'rganadilar ^[2:49].

O'zbekiston Respublikasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida ilg'or g'oyalar ilgari surilmoqda. Jumladan, "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholi-ning barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan ^[1]. Bu esa fuqarolik jamiyati shakllanishida huquqiy madaniyatning qay darajada muhimligini bildiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning amalda qanday bajarilayotgani bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda qonunlarga hurmat ruhini tarbiyalash, huquqiy ongni rivojlantirish, huquqiy hujjatlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Huquqiy madaniyatning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tadqiqotchi M. Sodiqova shunday ta'rif bergan: "Huquqiy davlatni shakllantirish vazifasini yuksak huquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, huquq o'ziga munosib oliy qadriyat o'rnini olmas ekan, demokratik fuqarolik jamiyatini yaratib bo'lmaydi" ^[3:70].



Huquqiy madaniyatni rivojlantirishga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Biz quyidagi omillarni qayd etishni lozim topdik:

- ta'lim tizimi: maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda huquqiy fanlarning o'qitilishi;
- ommaviy axborot vositalari: huquqiy xabardorlikni oshirish, media orqali huquqiy targ'ibot olib borish;
- davlat va jamoat tashkilotlari: "siyosiy partiyalar", "jamoatchilik institutlari", "Yoshlar ittifoqi" kabi tuzilmalar orqali huquqiy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish;
- oilaviy tarbiya: yosh avlodga qonunga hurmat va mas'uliyat tuyg'usini singdirish.

Globalizatsiya va raqamli transformatsiya davrida huquqiy madaniyat yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Raqamli huquqiy savodxonlik, internet etikasi va onlayn huquqiy xizmatlardan foydalanish ko'nikmalari dolzarb masalaga aylangan. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurash, huquqiy nigilizmga barham berish, inson huquqlari madaniyatini rivojlantirish ham zamonaviy huquqiy islohotlarning ajralmas qismidir.

Huquqiy-demokratik davlat va odil fuqarolik jamiyatini barpo etish davlatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosini tashkil etadi. Bu haqida birinchi Prezident I. A. Karimov: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi", – deya ta'kidlagan edilar^[4:89].

Fuqarolik jamiyatini qaror toptirishda huquqiy madaniyatning ahamiyati haqida fikr yuritib, O. Nasiriddinova quyidagilarni ta'kidlaydi: "Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishdir. Mamlakatda demokratiyaning rivojlanishi, tartib va qonunchilikning mustahkamlanishi, avvalo, jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi, har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri anglashi va ulardan samarali foydalanishi, o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishi va faoliyatida qonunga asoslanishi bilan belgilanadi"^[5:3].

Bugungi yoshlar ertaga u yoki bu sohada yetakchi mutaxassisga hamda u yoki bu guruhlarini o'z atrofiga birlashtirgan rahbar xodimga aylanadi. Shu bois, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar samarasi ana shu yoshlarga, ularning ongi, bilimi, e'tiqodi va amal qiladigan huquqiy, axloqiy qadriyatlariga bevosita bog'liqdir. Shuni teran anglagan holda bugungi jamiyatning har bir a'zosi kelajak avlodning munosib huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lib kamol topishida mas'ul ekanligini chuqur his qilishi talab etiladi.

Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U amaliy hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi omildir. Inson huquqlari va ularni himoya qilish masalalarini hal etishda davlatlar huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ularda ishlab chiqilayotgan yuridik hujjatlarning samarali va adolatli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tajribasida aholining huquqiy tarbiyasini kuchaytirish, bepul huquqiy maslahat markazlarini tashkil etish va yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish natijasida fuqarolarning huquqqa bo'lgan ishonchi sezilarli darajada ortmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyatni rivojlantirish – bu siyosiy barqarorlik, adolatli boshqaruv tizimi va inson huquqlarining kafolatidir. Huquqiy madaniyatning yuqori darajasi fuqarolarning davlat bilan o'zaro ishonchli munosabatini shakllantiradi, qonun ustuvorligini ta'minlaydi va demokratiyaning barqaror poydevorini mustahkamlaydi.

Ushbu mavzu bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar ulushini oshirish, interfaol o'qitish metodlarini joriy etish;
- media sohasida huquqiy madaniyatga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvlar va platformalarni kengaytirish;
- yoshlar va talabalar uchun muntazam huquqiy seminarlar, treninglar va tanlovlar tashkil etish;
- oila va mahalla darajasida huquqiy targ'ibot ishlari samaradorligini oshirish;
- raqamli huquqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun onlayn ta'lim kurslarini yo'lga qo'yish kabilarni ilgari surishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2019-yil 9-yanvar, PF-5618-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>
2. Xo'jaxonov I.A. Yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning innovatsion metodlari. Monografiya. – Namangan: Muhandis nashr, 2024. – B.144.
3. Sodiqova M.N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. – Andijon: "Hayot nashri-2020" nashriyoti, 2024. – B.124.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997. – B.173.
5. Kadirov M.B. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillari. Diss. – Toshkent, 2019. – B.161.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.